

TURIZM SOHASIDA XALQARO METODLARNI QO‘LLASH VA HUDUDLARDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH.

Bazarbayeva Uljan Sholibayevna

Toshkent davlat agrar universiteti

“Huquq va turizm” fakulteti, Yurisprudensiya

yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

E-pochta: uljanbazarbayeva@gmail.com.

“Turizm – iqtisodiyotimizning muhim tarmog‘i”

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Annotatsiya: Mazkur maqola turizm sohasida xalqaro metodlarni qo‘llash va hududlarda malakali kadrlarni tayyorlashning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada xalqaro metodlar, jumladan, turizmni boshqarish, marketing, ekologik barqarorlik, va mehnat resurslarini boshqarish kabi yo‘nalishlarda qanday qo‘llanilayotgani ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, hududlarda turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlashda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlar, jumladan, ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro amaliyotlar va stajirovkalarni joriy etish, malaka oshirish kurslari va xalqaro sertifikatlash tizimlari haqida ma‘lumot berilgan. Maqolada kadrlar tayyorlashning muhimligi va turizm sohasining barqaror rivojlanishiga bo‘lgan ta‘siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bu yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish, hududlarda turizmni rivojlantirish va iqtisodiy o‘rnatishni ta‘minlashda muhim omil sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, xalqaro metodlar, qaror, malakali kadrlar, sertifikatlash, ekologik barqarorlik.

Kirish: Turizm sohasi global miqyosda iqtisodiy o‘rnatish va madaniy almashinuvning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha turli mamlakatlar va hududlar o‘rtasida keng ko‘lamli iqtisodiy aloqalarni o‘rnatishda va yangi ish o‘rinlarini yaratishda katta rol o‘ynaydi. Biroq, turizm sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi faqat iqtisodiy va infratuzilma omillariga bog‘liq emas, balki sohada malakali kadrlarning mavjudligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, xalqaro metodlarni qo‘llash va hududlarda malakali kadrlarni tayyorlash masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Turizm sohasini rivojlantirishning maqsadlari sifatida turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirishda maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish, turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonini yo‘lga qo‘yish, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta‘minlash dolzarb masalalar hisoblanadi. So‘nggi yillarda jahon turizm bozori barqaror o‘rnatish sur‘atini namoyish etib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ishchi o‘rinlar bilan ta‘minlashning asosiy sektoriga aylanmoqda. Turizm sohasi ulushiga jahon savdo xizmatlarining **30%**, investitsiyalarining **7%**ga yaqini va jahon **YAIM 10,5%** to‘g‘ri keladi. Shu o‘rinda, har beshinchi yangi ish o‘rni turizm sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Jahonning **38%** mamlakatida turizm davlat byudjetining asosiy manbai, **83%da** esa beshta asosiy manbaning biri hisoblanadi. O‘zbekiston boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosining mavjud resurslari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni faol jalb qilish turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qildi.

Asosiy qism: Diyorimiz ko‘plab diqqatga sazovor joylarga ega, jumladan, **YUNESKO**ning Butunjahon merosi obyektlari, **Samarqand, Buxoro, Xiva** va **Shahrisabz** kabi qadimiy shaharlar, shuningdek, **Ipak yo‘li** va **Orol dengizi** turistik mintaqasining tabiiy go‘zalligi alohida etiborga molik hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda hukumatimiz turizmni rag‘batlantirish

maqsadida turistik infratuzilmani rivojlantirish, marketing kompaniyalari va mamlakatimizga kirish vizalarini liberallashtirishga kabi bir qancha amaliy ishlarni amalga oshirmoqda. Buning iqtisodiyotiga sezilarli o'z hissasini qo'shmoqda. Ammo shuni hisobga olish kerakki, mamlakatda sohaning o'sish salohiyati yuqoriligiga qaramay, O'zbekiston sohaga kadrlarni tayyorlashda va rivojlantirishda ma'lum bir muammolarga duch kelmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda **27 ta** oliy ta'lim tashkiloti va 8 ta kollejdagi turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda. Turizmga kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalarining taklif etayotgan ta'lim dasturlarida asosan talaba yoshlarga beriladigan bilim va ko'nikmalarning zamon talabida ortda qolayotganligi, sohaning asl soha vakili bo'lgan malakali professor-o'qituvchilarining kamligi hamda **OTM**larda zamonaviy jihozlar yetishmasligi kuzatiladi. Bundan tashqari, o'quv dasturlari va turizm korxonalari o'rtasida integratsiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi ham bu bitiruvchilarning malakalari va turizm sohasidagi ish talablari o'rtasida nomutunosibliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Malakali kadrlar etishmasligi muammosi har qanday soha uchun doimo dolzarb bo'lib, jadal rivojlanayotgan turizm va mehmondo'stlik sohasi uchun asosiy muammo hisoblanadi, ya'ni

- Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining bitiruvchilari xalqaro standartlarga mos keladigan kasbiy talablarga javob bermaydi.
- Bugungi mutaxassislarning professional darajasi past, shuning uchun o'z o'quv dasturlariga ega mehmonxonalar va sayyohlik agentliklari yollangan xodimlarni qayta tayyorlashga majbur.
- Yosh mutaxassislar rivojlanayotgan raqobat muhitida ega bo'lishi kerak bo'lgan qobiliyat va moslashuvchan ko'nikmalarning yetishmasligi kabilardir.

Xalqaro Metodlarni Qo'llash: Xalqaro metodlar turizm sohasidagi rivojlanishni optimallashtirish va mamlakatlarning tajribalarini o'zaro almashish imkonini beradi. Xalqaro metodlar va tajribalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda qo'llanadi:

- Turizmni boshqarish va strategik rejalashtirish: Xalqaro metodlar, masalan, turistlar oqimlarini boshqarish, resurslarni samarali taqsimlash, va turizmni barqaror rivojlantirish strategiyalari global miqyosda keng qo'llanilmoqda. Bular orqali hududlar va mamlakatlar turizmni iqtisodiy jihatdan samarali boshqarishlari mumkin.
- Marketing va brending: Xalqaro brendlar va marketing strategiyalari turizm sohasida katta ahamiyatga ega. Misol uchun, dunyoning yetakchi turistik hududlari (**Fransiya, Ispaniya, Italiya**) o'zlarining marketing va reklama kompaniyalarini dunyo bo'ylab muvaffaqiyatli olib bormoqda. Bu metodlar o'z hududida turizmni rivojlantirishda keng qo'llanilishi mumkin.
- Turizmning ekologik barqarorligi: Xalqaro tajribalar ekologik toza turizmni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Masalan, **Barqaror Turizm Jamg'armasi** va boshqa xalqaro tashkilotlar ekologik muvozanatni saqlab qolish uchun innovatsion metodlarni ishlab chiqmoqdalar.
- Mehnat resurslarini boshqarish: Xalqaro tajribalar asosida turizm sohasida malakali va malakasiz ishchi kuchini boshqarish metodlari, jumladan, turizm sohasidagi professional xizmatlar va turistik xizmatlarni boshqarish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilgan.

Birgina **Samarqand** shahrining o'zida turistik infratuzilmani yaxshilash uchun **1 milliard dollardan** ortiq mablag' investitsiya sifatida kiritildi. Bugungi anjumanimiz o'tkazilayotgan **"Ipak Yo'li"** sayyohlik markazi ana shunday yirik loyihalardan biridir. Bundan tashqari, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida turizm politsiyasi tashkil etildi. **"Amirsoy"** qishki kurorti, **"Afsonalar vodiysi"**, **"Zomin"** va **"Chorvoq"** zonalarini ko'plab xorijiy sayyohlar e'tiborini tortadigan xalqaro turizm maskanlariga aylandi. An'anaviy turmush tarzi va noyob hunarmandchilikka ega bo'lgan turizm qishloqlari tashkil etilmoqda. Sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida mehmonxona o'rinlari soni **140 mingga** yetkazildi, **70 ta** yangi sayyohlik marshruti ochildi, **6 ta** xususiy aviakompaniya ish boshladi. Sayyohlik sohasida professional kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor beryapmiz. O'zbekistondagi **35 ta oliy ta'lim**

muassasasida xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. Samarqandda **“Ipak yo‘li”** turizm va madaniy meros xalqaro universitetida **19 ta** mamlakatdan kelgan talabalar tahsil olmoqda. O‘zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni ikki barobar ko‘paydi. Turizm eksportidan tushayotgan daromad **4 barobar** o‘ydi. Misol uchun, sayyohlar soni bu yil **Yaponiyadan – 5 barobar, Hindiston va Italiyadan – 3,5 barobar, AQSHdan – 2 barobarga** ortdi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, joriy yilda mamlakatimizga jami 7 million sayyoh tashrif buyuradi. Ushbu ko‘rsatkichni **2030 yilga borib 15 millionga**, ichki turizm oqimini esa **25 millionga** yetkazish reja qilinmoqda.

Hududlarda Malakali Kadrlarni Tayyorlash: Turizm sohasining rivojlanishi uchun malakali kadrlarning tayyorlanishi alohida ahamiyatga ega. Hududiy kadrlarni tayyorlashda quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish zarur hisoblanadi:

- Mahalliy oliy o‘quv yurtlari va professional ta‘lim muassasalari orqali turizm sohasidagi talab va imkoniyatlarni hisobga olgan holda malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimi takomillashtirilishi kerak. Kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribalar va metodlarni joriy etish orqali ta‘lim sifatini oshirish mumkin.

- Turizm sohasida xalqaro amaliyotlar va stajirovkalar yosh mutaxassislarning professionallik darajasini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Bunday amaliyotlar turizmni boshqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa turistik yo‘nalishlarda mutaxassislar o‘z ko‘nikmalarini oshirishlari mumkin.

- Hududlarda turizm sohasidagi ishchilarni malaka oshirish uchun qisqa muddatli treninglar, seminarlar va kurslar tashkil etilishi kerak. Bular orqali turizm sohasidagi yangi texnologiyalar, marketing usullari va ekologik turizm bo‘yicha bilimlar oshirilishi mumkin.

- Malakali kadrlarni tayyorlashda xalqaro sertifikatlash tizimlari (masalan, **IATA, UNWTO**) orqali turizm sohasida ish olib boradigan mutaxassislar uchun global miqyosda tan olingan sertifikatlar olish imkoniyati yaratish zarur. Bu metod hududda turizm sohasidagi kadrlar malakasini oshirishga yordam beradi.

Turizm tarmog‘ini isloh qilishda O‘zbekistonning strategik hamkoriga aylangan **YUNVTO** bilan hamkorlikda misli ko‘rilmagan yuksak darajaga erishilganligini katta mamnuniyat bilan qayd etishimiz mumkin. **“Ipak yo‘lida turizm”** brendini keng yoyish, jumladan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizga turizm yo‘nalishlarini ommalashtirish, malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish borasidagi qo‘shma sa‘y-harakatlar yuqori baholandi. Mamlakatimizda **YUNVTO** Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasi o‘tkazilishi, uning doirasida **Samarqand** shahrida **Xalqaro turizm akademiyasi** va **“Ipak yo‘li”** tematik ofisining ochilishi hamkorlikning muhim amaliy natijasi bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev Butunjahon** turizm tashkiloti (**YUNVTO**) Bosh assambleyasining **25-sessiyasi** tantanali ochilish marosimida nutq so‘zladi. Keyingi yillarda salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish tizimi, yana **55 ta** davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Sayyohlik biznesining barcha turlarini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi, soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etildi, kredit va moliyaviy yordam kuchaytirildi. Pandemiya cheklovlariga qaramasdan, ikki yil davomida **800 ta infratuzilma loyihasi** amalga oshirildi.

Mehmonxona o‘rinlari soni **140 mingtaga** yetkazildi, **70 ta** yangi sayyohlik marshruti ochildi, **6 ta** xususiy aviakompaniya ish boshladi.

Natijada O‘zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni ikki barobar ko‘paydi. Turizm eksportidan tushayotgan daromad **4 barobar** o‘ydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, joriy yilda mamlakatimizga jami 7 million sayyoh tashrif buyuradi. Ushbu ko‘rsatkichni **2030 yilga borib 15 millionga**, ichki turizm oqimini esa **25 millionga** yetkazish reja qilingan.

Olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar jahon hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston eng tez rivojlanayotgan turizm maskani va eng xavfsiz davlat sifatida xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

Ayni paytda O'zbekiston yetakchisi global turizmning eng dolzarb muammosi – bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlash ekanini qayd etdi. Xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida davlatimiz rahbari **BMT** doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif etdi. Iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish har qachongidan ham dolzarbligi ko'rsatib o'tildi. Bu boradagi amaliy qadamlar sifatida **YUNVTO** doirasida "**Yashil**" turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis etish, shuningdek, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti hamda Samarqanddagi "Ipak yo'li" xalqaro universiteti hamkorligida Global "**yashil**" turizm startaplari laboratoriyasini yaratish taklif qilindi. Imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulay sharoitlarni yanada kuchaytirish va inklyuziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti **2025 yilni "Butunjahon inklyuziv turizm yili"** deb e'lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. **YUNVTO** doirasida tarixiy yodgorliklarni asrash bo'yicha eng ilg'or tajribalar bilan almashish uchun platforma – Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. O'zbekiston Kengashning birinchi yig'ilishini **Buxoro** shahrida tashkil etishga tayyorligi qayd etildi. Mamlakatimiz yetakchisi yaqinda **Samarqandda** ochilgan turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha dunyoda o'xshashi yo'q **YUNVTO** Xalqaro turizm akademiyasida mutaxassislarni o'qitish uchun maxsus grantlar ajratilishini e'lon qildi.

Mamlakatning boy madaniy merosi, qadimiyshaharlar, tabiiy resurslar va mehmondo'stlik an'analari O'zbekistonni jahon turizm xaritasida o'ziga xos joy egallash imkoniyatiga ega qilib qo'yadi. Ushbu sohani rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning turli jabhalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda:

- Yalpi ichki mahsulotni oshirish;
- Yangi ish o'rinlarini yaratish;
- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
- Mahalliy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash.

Xulosa va takliflar: Turizm sohasi O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va madaniy almashinuv uchun ulkan salohiyatga ega bo'lgan soha hisoblanadi. Biroq, bu salohiyatdan samarali foydalanish hamda uning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun sanoat talablariga javob beradigan malakali va zamonaviy bilimga ega bo'lgan kadrlarni ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlash va bu tizimni takomillashtirish bo'yicha bir qancha strategiyalarni ishlab chiqish bilan bog'liq muammolarni hal qilish orqali O'zbekiston o'zining turizm ta'lim tizimini mustahkamlashi va turizm sohasining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Maqolada ko'rsatilganidek, xalqaro tajribalar va metodlar turizmni boshqarish, marketing, ekologik barqarorlik va mehnat resurslarini samarali boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bularning barchasi turizm sohasini yanada rivojlantirish va uning iqtisodiy, madaniy va ekologik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, hududlarda malakali kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro amaliyotlar va stajirovkalar tizimini joriy etish, malaka oshirish kurslari va xalqaro sertifikatlash tizimlarini rivojlantirish zarur. Bular orqali nafaqat mutaxassislarning professional darajasi oshadi, balki turizm sohasida sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlari ham kengayadi. Shunday qilib, xalqaro metodlarni qo'llash va kadrlar tayyorlashni samarali tashkil etish, hududlarda turizm sohasining barqaror rivojlanishiga turtki berishi mumkin. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va global turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: